Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik tarmoqlardagi o'rni" mavzus...

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami *Andijan 2023 yil 10-noyabr*

ECM TIZIMLAR VA ULARNING TAHLILI

Ergasheva Ma'mura G'ayratovna, Andijon mashinasozlik instituti o'qituvchisi

Bugungi kunda tashkilotlardagi mutaxasislar hujjat bilan ishlash sohasida kompyuterdan asosan yozuv mashinkasi sifatida foydalanishadi. Biroq, kompyuter texnologiyalarini tashkilot faoliyatiga qo'llash orqali hujjat bilan ishlashning butun davrini avtomatlashtirish imkonini taqdim etiladi. Tashkilotda hujjatlarni yaratish, ro'yxatga olish, tahrirlash, ijro nazoratini amalga oshirish, boshqa manzilga yuborish, jurnallarni yuritish, tashkilot ichida hujjatlar harakatini tashkil etish, hujjatni ko'zdan kechirish va tasdiqlash, elektron arxivni tashkil etish kabi hujjat ustida amallar bajariladi. Ushbu jarayonlarni avtomatlashtirish elektron hujjat aylanishni boshqarish masalasiga olib keladi. ECM tizimlar ya'ni, elektron hujjat aylanishni boshqaruvchi tizimlar masalaning ma'lum bir sohada echimi beradi.

Jahonda turli sohalar bo'yicha mavjud dasturiy mahsulotlar tahlilini amalga oshiruvchi Gartner kompaniyasi tadqiqotlariga ko'ra ECM – korporativ axborot rusurslarini boshqaruvchi tizim bo'lib, turli xildagi va shakldagi tuzilmalanmagan axborot (kontent)ning hayotiy siklini qo'llab-quvvatlash uchun strategik infratuzulma va texnik arxitekturasini ifodalaydi . Gartner ga ko'ra ECM – tizimlari arxitekturasi o'zaro bog'liq va mustaqil tarzda foydalaniladigan komponentlardan iborat [1].

ECM tizimlarining asosiy maqsadi – kompaniyadagi barqaror raqobat afzalligini ta'minlash va samaradorligini oshirish maqsadida to'plangan korparativ axborot aktivlarini samarali boshqarishdan iborat.

Korxonadagi kontent boshqaruvida tartibsizligini ochish, tashkilotdagi elektron hujjat aylanishning to'liq tizimini tashkil etish. Kompaniyadagi turli tuzulishdagi muammolar oldini olish va eng kerakli axborotlarni qo'shish. Xodimlarning jamoaviy ish unumdorligini saqlab qolish va elektron yozuv sifatidagi tartiblashni ushlab turish. ECM infratuzulmalar bilan ta'minlaydi, bunda u turli xildagi muammolarni bartaraf etishga imkon beradi.

ECM tizimlari texnologiyalari AT-infratuzulmalarini shakllantiradi, bunda maxsus ilovalar va quyi xizmatlarni qo'llab-quvvatlaydi, klntent hayot siklini turli turlari va shakllari (shu jumladan, foftografiya, XML-tarkibiy qismlari, videokliplar va elektron pochta xabarlari) bilan ishlashni ta'minlaydi. [2]

ECM tizimlari echimlari korparativ ilova integratsiyasi muhitidan foydalanish, amalag oshirish va dasturiy ta'minlash oralig'ida ko'rinmas foydalanuvchi integratsiyasi hisoblanadi. Barcha ilovalar o'zida ECM mazmunini akslantiradi, bunda yagona tuzilish orqali kompaniya axborotlarni birlashtiradi, ortiqcha ishlardan va shu bilan bog'liq bo'lgan axborot muammolaridan xalos etadi.

ECM – tizim imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- Hujjatlarni kiritishda:
- Tekshirish;
- E'tirof etish;
- Sinflash;
- Indekslash;

Published: 10.11.2023

Cite this article: Ergasheva Ma'mura G'ayratovna (2023). ECM tizimlar va ularning tahlili. Emro Science and Education, 1(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/658

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

- Hujjat bilan ishlashda:
- Hujjat atributlariga ko‘ra qidirish;
- Veb orqali kirish;
- Tashkilot portali orqali kirish;
- Odatiy interfeyslar (SAP, 1C, CAD va boshqalar) orqali kirish;
- Hujjatlar va ma’lumotlar boshqaruvida:
- Hujjatlarni tizimlashtirish;
- Dostup berilgan foydalanuvchilarga boshqarish huquqi berish;
- Uzoq muddatli saqlashni boshqarish;
- Hujjat aylanishida:
- Hujjatlarni qabul qilish va ro‘yxatga olish;
- Hujjatni tasdiqlash;
- Topshiriqlarni shakllantirish;
- Topshiriqni yo‘naltirish va ijro nazoratini o‘rnatish;
- Hujjatga doir ishlarni guruhlashtirish;
- Kundalik ishlab chiqishlarni modellashtirish va optimallashtirish;

ECM arxitekturasi

ECM –tizimlarning dasturiy ta’minoti komponentalari quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ega:

- Hujjat boshqaruvi (Document Management - DM) ;
- Yozilganlar boqaruvi (Records Management - RM) ;
- Biznes jarayonlar boshqaruvi (Business Process Management - BPM);
- Veb kontent boshqaruvi (Web Content Management - WCM);
- Hujjatga yo‘naltirilgan guruhli ishlar (GroupWare ili Document-Centric Collaboration) ;


ECM- tizimlarning 4 asosiy komponentalari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat[5].

- Capture, bu- jismoniy yoki raqamli manbalardan foydalangan holda kontentni kiritish, yaratish bilan shug‘ullanadi va odam yoki dasturiy ilovalar orqali boshqariladi;
- Manage (boshqaruv), bu kontentning hayot sikli bilan shug‘ullanadi va u tashkilotda faoliyat ko‘rsatadi;
- Store, kontentga kirish va saqlash bilan shug‘ullanadi;
- Deliver, bu kanallar yoki mexanizmlardan foydalangan holda kontentni qabul qilib oluvchilarga etkazib erish bilan shug‘ullanadi;

Mavjud ECM plotformalari

Hozirgi kunda turli xildagi ECM ni ishlab chiquvchi plotformalar mavjud bo‘lib, ular biri-biridan turli jihatlariga ko‘ra o‘xshaydi va farqlanadi. Ularning yutug‘i va kamchiliklariga ko‘ra turlicha qiyoslashishadi va afzal ko‘rishadi.

Dunyo bozorida ECM ni ishlab chiquvchi plotformalarni baholovchi kompaniyalardan biri Gartner kompaniyasidir. Gartner kompaniyasining 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra quyidagi kompaniyalar liderlikni olishdi (Rasm 1). Ular IBM, Hyland, OpenText va Dell EMC.



Rasm1. Gartner kvadratining ECM tizimlar uchun qiyosiy tahlili

IBM ni Vatson analitik mahsuloti tomonidan taklif qilingan imkoniyatlar asosida mutaxasislar qayd etishdi, shuningdek vositalar va zamonaviy yondashuvlarning keng o‘lchamda mavjudligiga asosan ham e’tirof etildi, bunda vendorlar (ishlab chiqaruvchilar) Box echimlari bilan mustahkam integratsiyasini ta’minlashlari mumkin edi. Hyland kompaniyasi esa o‘zining yagona plotformasi OnBase tufayli yuqari ball olishga muvaffaq bo‘ldi, ushbu plotformani tarqatish qulay va “vertikal” echimlari mavjud edi, shuningdek, kontent himoyasi va jarayonlar avtomatizatsiyasi yuqori darajada edi.

Dell EMC undan foydalanuvchilar soni ko‘pligi tufayli shu natijaga erishdi, bunda kompaniya o‘z echimlari, ya’ni biznes uchun juda muhim ilovalar integratsiyasi va mobil qo‘llab-quvvatlash bilan o‘zaro muloqotda bo‘lish orqali foydalanuvchilar tajribasini yangi darajaga olib chiqishga ega bo‘ldi. U o‘z ahamiyatini mikrokontentlarni boshqarish uchun Leap xizmatlari orqali, shuningdek, InfoArchive mahsuloti imkoniyati orqali ko‘rsatdi. OpenText esa diqqatga sazovor mobil echimlari va kengaytirilgan tahlillari, ECM va BPM orasidagi integratsiya, zamonaviy foydalanuvchi interfeyslari orqali etakchi o‘rinni egalladi. Shu bilan birga, mualliflar aytishiga qaraganda, OpenText da foydalanuvchini qo‘llab-quvvatlash xizmatlari achinarli ahvolda ekan. Biroq bu kabi muammolarga Dell EMC kompaniyasidan «novichki» yordamini olish orqali – ular yuqori ballga ega bo‘lishdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ECM tizimlari bugungi kunda hujjat boshqaruvini har tomonlama qamrab oladi. ECM – tizimlari umumiy holda yaratilgan, albatta ularni ma’lum bir jarayonga tadbiq etish uchun esa ushbu tizimlar plotformani yaratuvchilar tomonidan ularning ruxsatini talab qiladi. Bu esa ma’lum ma’noda axborot xavfsizligiga oid va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu fikrlardan xulosa qilgan holda, shuni aytish mumkinki, hukumat tashkilotlaridagi har bir jarayon uchun o‘zining hujjat boshqaruvini ishlab chiqish muammosi yuzaga

keladi. Bu tashkilotdagi axborotlarning xavfsizligi ta’minlanishiga hamda iqsodiy tomondan chegirmalar hosil bo‘lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Enterprise Content Management (ECM) Reference Architecture (RA). // California Enterprise Architecture Framework , January 2, 2014
2. Upravlenie_IT-servisami_i_kontentom//Lankin.Bricheeva.Makarova //Таганрог – 2012.
3. Enterprise-Content-Management// Ulrich Kampffmeyer.2006
4. Architecting an Enterprise Content Management Strategy: A Four-Pillar approach// Abhishek Kumar.USA.2014
5. EMC® Documentum® System Version 7.2 //EMC Corporation ,Corporate Headquarters Hopkinton, MA 01748-9103,1-508-435-1000, 2016

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami *Andijan 2023 yil 10-noyabr*

A REVIEW OF LABOR PROTECTION MANAGEMENT SYSTEM RESEARCH AND IMPLEMENTATION

Egamberdiyev Azimjon, 2nd ear student of "Labor Protection and Technical Safety"

Abstract

This review synthesizes current research on labor protection management systems to identify key elements, implementation strategies, and opportunities for further study. Robust management systems are crucial for protecting worker health and safety, but many organizations struggle with effective development and implementation. Analysis of literature identifies critical components including leadership commitment, hazard identification and risk management, training and competence, performance measurement, and safety culture. Phased implementation, adaptation to local context, and worker participation emerge as key implementation success factors. Significant knowledge gaps remain regarding system evaluation approaches, impact on safety metrics, and comparative effectiveness of specific system components. Additional research should address these gaps and engage wider international perspectives. Ultimately, further work is needed to translate identified best practices into sustained improvements in occupational health and safety through contextualized management system implementation.

Introduction

- Background on occupational injury/illness rates and consequences
- Importance of labor protection management systems
- Standards such as OHSAS 18001 provide frameworks
- But organizations struggle to implement effective systems in practice
- Purpose to review literature on labor protection management systems in order to:
  - Identify key system components
  - Understand implementation challenges and best practices
  - Highlight significant research gaps to guide future studies

Key Elements of Labor Protection Management Systems

- Leadership commitment and worker participation
- Hazard identification, risk assessment and control
- Policies, procedures, training
- Incident investigation and organizational learning
- Performance measurement and improvement
- Safety culture

Implementation Strategies

- Phased approach focused on high risk areas first
- Alignment with local organizational context
- Direct worker involvement and consultation
- Sustained commitment to continuous improvement

Research Gaps and Future Directions

- More work needed on system evaluation approaches and impact measurement